



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. Jurnal Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrda (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

MILLIY TARBIYANING TA'LIMIY BOSQICHLARI - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Tursunova Shaxnoza Sobirjanovna

Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

tshahnoza893@gmail.com

Tel: +99893 927 14 64

ORCID:0009-0002-0791-1440

Annotatsiya: Maqolaqa umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy tarbiya asosida vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishning metodologik asoslariga qaratilgan bo'lib, ta'limning taraqqiyot bosqichlaridagi pedagogik muammolarni soha olimlarining ilmiy asoslari misolida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy tarbiya, buyuk siymolar, metodologik asos, pedagogika, interfaol ko'rsatmalar, zamonaviy usullar, so'rovnomalar, og'zaki savol-javob, ta'lim bosqichlari.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЭТАПЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В статье рассматриваются методологические основы формирования чувства патриотизма у учащихся начальных классов общеобразовательных школ на основе национального воспитания. Также раскрываются педагогические проблемы на этапах развития образования на примере научных подходов учёных данной области.

Ключевые слова: национальное воспитание, великие личности, методологическая основа, педагогика, интерактивные рекомендации, современные методы, анкетирование, устный вопрос-ответ, этапы образования.

EDUCATIONAL STAGES OF NATIONAL UPBRINGING AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: The article focuses on the methodological foundations of instilling patriotic feelings in primary school pupils of general secondary schools on the basis of national upbringing. It also highlights pedagogical problems at the developmental stages of education through the example of scientific approaches proposed by scholars in the field.

Keywords: national upbringing, great figures, methodological basis, pedagogy, interactive guidelines, modern methods, questionnaires, oral question-and-answer, stages of education.

KIRISH

Milliy tarbiya masalasi zamonaviy pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularning milliy qadriyatlarga sodiqligini shakllantirish hamda milliy identifikatsiyani mustahkamlash muhim pedagogik vazifa sifatida e'tirof etilmoqda.

Milliy tarbiyaning pedagogik mohiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayon shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini ilmiy asosda tashkil etish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Milliy tarbiyaning samaradorligi ko'p jihatdan uning ta'lim tizimi bosqichlari bo'yicha to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqdir. Uzluksiz ta'lim tizimida milliy tarbiyaning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi shaxsning izchil rivojlanishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ushbu mavzuga oid manbalar buyuk siymolarimizdan bo'gan Al Forobiy, Al Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy hamda jadid ma'rifatchilarining asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik g'oyalari milliy tarbiyaning muhim g'oyaviy asoslari sifatida tahlil qilindi. Ushbu mutafakkirlar merosi yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim pedagogik manba bo'lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Ayniqsa, jadid ma'rifatchilari tomonidan ilgari surilgan milliy ongni shakllantirish, yosh avlodni ma'rifatli va vatanparvar etib tarbiyalash g'oyalari zamonaviy milliy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi ekanligi aniqlandi. Milliy tarbiya ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va obyektiv jarayon bo'lib, uning maqsadi – komil insonni shakllantirishdir.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy vositalar

joriy etilib, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosidan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratildi, "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash" ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan o'quv jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi [1]. Bu borada Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani "axloq fani" deb atab, uni badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi deb uch guruhga ajratadi. Avloniy oilani tarbiyaning birinchi bosqichi deb hisoblaydi va "yaxshi xulqlar"ni 33 ta, "yomon xulqlar"ni 21 ta misol bilan ochib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.


Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarining pedagogik mohiyati, ularning uzviyligi hamda ushbu jarayonni tashkil etishda yuzaga keladigan pedagogik muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. O'rganilgan ilmiy manbalar va pedagogik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatdiki, milliy tarbiya shaxsning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Milliy tarbiya tushunchasining pedagogik mohiyati keng yoritilib, uning shaxsning milliy ongini shakllantirish, milliy qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirish hamda milliy identifikatsiyani mustahkamlashdagi o'рни asoslab berildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy tarbiya jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlari asosida shakllanib, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlari tizimi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinib, maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonda milliy tarbiyaning uzluksiz amalga oshirilishi zarurligi asoslandi. Har bir ta'lim bosqichi o'ziga xos pedagogik vazifalarga ega bo'lib, ularning o'zaro uzviyligi shaxsning izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, milliy tarbiyaning bosqichlararo uzviyligini ta'minlash tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Ushbu paragrafda milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini tashkil etishda uchraydigan pedagogik muammolar ham tizimli ravishda o'rganildi. Tahlillar natijasida quyidagi asosiy muammolar mavjudligi aniqlandi:

- ✚ milliy tarbiya bosqichlari o'rtasida uzviylikning yetarli darajada ta'minlanmaganligi;
- ✚ oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;
- ✚ milliy tarbiya mazmunining zamonaviy ijtimoiy talablar bilan yetarli darajada uyg'unlashmaganligi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish uchun milliy tarbiya jarayonini ilmiy asosda takomillashtirish zarurligi asoslab berildi. Jumladan, milliy tarbiyaning uzluksiz modelini ishlab chiqish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim yo'nalishlar sifatida belgilandi.

Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini ilmiy asosda tashkil etish shaxsning milliy o'zligini shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini rivojlantirish hamda jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariy tahlillar keyingi boblarda milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini takomillashtirishning metodik va amaliy asoslarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy-metodologik zamin yaratadi (1-rasm).



Pedagog olim R.J.Ishmuhamedov ta'kidlaganidek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali tarbiyaning samaradorligini oshirish mumkin [2].

XULOSA

Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarining pedagogik mohiyati, ularning uzviyligi hamda ushbu jarayonni tashkil etishda yuzaga keladigan pedagogik muammolar ilmiy-nazariy jihatdan tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, buyuk siymolarimiz asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik g'oyalari milliy tarbiya tizimining g'oyaviy asoslari sifatida o'rganildi.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy tarbiya shaxsning milliy ongini shakllantirish, milliy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida

namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlash bilan birga, uning jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashiga ham xizmat qiladi.

Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlari tizimi ilmiy jihatdan tahlil qilinib, maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan jarayonda milliy tarbiyaning izchil amalga oshirilishi zarurligi asoslandi. Har bir ta'lim bosqichi o'ziga xos pedagogik vazifalarga ega bo'lib, ularning o'zaro uzviyligi shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, milliy tarbiyaning bosqichlararo uzviyligini ta'minlash uning samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi.

Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini tashkil etishda yuzaga keladigan asosiy pedagogik muammolar ham ilmiy asosda tahlil qilindi. Jumladan, milliy tarbiya bosqichlari o'rtasida uzviylikning yetarli darajada ta'minlanmaganligi, metodik ta'minotning yetishmasligi, pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi hamda oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning sustligi kabi muammolar mavjudligi aniqlandi [3]. Ushbu muammolar milliy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini ilmiy asosda tashkil etish yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning milliy o'zligini anglash hamda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini tizimli ravishda takomillashtirish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, milliy tarbiyaning ta'limiy bosqichlarini takomillashtirishning metodik va amaliy asoslarini ishlab chiqish uchun zarur ilmiy-metodologik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 son Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. www.lex.uz.
2. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. - 312 b.
3. Hasanboyeva O.U. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. - 288 b.